



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasini mudiri, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasini dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLUKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori
kuldashvekm@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/261

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalari investitsiya faoyiati, ushbu faoliyatning sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda mamlakatni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlashda tutgan o'rnini masalalarida fikr yuritilgan. Muallif tomonidan milliy sug'urta bozoridagi investitsiya faoyiati tahlil qilingan va shu asosda xulosalar shakllantirilgan. Maqolada sug'urta kompaniyalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida O'zbekistondagi mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha muallif tomonidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sug'urta, sug'urta kompaniyasining investitsiya faoyiati, sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi, mamlakatni investitsiya mablag'lari bilan ta'minlash, sug'urta kompaniyalarining investitsiyaviy jozibadorligi, investitsion faoliyat diversifikatsiyasi.

Abstract: This article reflects on the issues of investment fauna of insurance companies, the role of this activity in ensuring the financial stability of insurance companies and providing the country with investment funds. Investment activities in the national insurance market were analyzed by the author and conclusions were formed on this basis. In the article proposals and recommendations have been developed by the author on the existing obstacles in Uzbekistan and their elimination in order to increase the investment attractiveness of insurance companies.

Keywords: Insurance, investment fauna of the insurance company, financial stability of the insurance company, provision of the country with investment funds, investment attractiveness of insurance companies, diversification of investment activities.

Абстрактный: В данной статье рассматриваются вопросы инвестиционной деятельности страховых компаний, роль этой деятельности в обеспечении финансовой стабильности страховых компаний и обеспечении страны инвестиционными средствами. Автор проанализировал инвестиционную деятельность на национальном страховом рынке Узбекистана и на этой основе сформулировал выводы. В статье в целях повышения инвестиционной привлекательности страховых компаний Узбекистана автором разработаны предложения и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: Страхование, инвестиционная деятельность страховой компании, Финансовая устойчивость страховой компании, обеспечение страны инвестиционными средствами, инвестиционная привлекательность страховых компаний, диверсификация инвестиционной деятельности.

Kirish (Введение/Introduction).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti uchun qanchalik ahamiyati yuqori ekanligini shunday bayon etgan: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi"[1]. Investitsiyalar iqtisodiyot rivojining asosiy omili ekanligiga haqiqatdan han shak-shubha yo'q. Sug'urta faoliyati esa o'z o'rnida bir vaqtning o'zida katta investitsiyaviy manba va investitsiyaviy risklar natijasida kelib chiqadigan zararlarni qoplashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Aksariyat dunyo mamalakatlarida kapital bozorining asosiy ishtirokchilari sug'urta kompaniyalarini o'z ichiga olgan institutsional investorlardir. Sug'urta kompaniyalari o'zlarining sug'urtaviy faoliyati davomida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to'playdi va ushbu mablag'lar vaqtinchalik bo'sh mablag'lar bo'lib, ularni iqtisodiyot sohaloriga investitsiya sifatida yo'naltiriladi. Bu esa sug'urtani iqtisodiyotning muhim va etakchi sohasi sifatida tan olishga olib keladi. Iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari investitsiya aktivlari bo'yicha ko'plab kredit va moliya institutlaridan ustun turadi va daromadlarining katta qismini fond bozoridagi investitsiya operatsiyalaridan oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Анализ использованной литературы/Literature review).

Dunyo bo'yicha sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: Liu Ping tomonidan mazkur faoliyat bo'yicha bergan fikrga ko'ra, sug'urta fondlaridan foydalanish sug'urtaviy investitsiyalarga taalluqli, ya'ni sug'urta kompaniyalari vaqtinchalik bo'sh aktivlarni

qo'shimcha foyda olish maqsadida investitsiyaga yo'naltiradi, bu esa ushbu mablag'lardan samarali foydalanish evaziga sug'urta kompaniyasining qiymatini oshiradi. Bu masalada sug'urta kompaniyalari har tomonlama mos keladigan moliyalashtirish kanallarini tanlay olishlari muhim hisoblanadi. Investitsiya uchun yo'nalishni belgilab olishda, sug'urta kompaniyasining asosiy biznesi bilan aloqador bo'lgan yoki ushbu biznesning rivojlanishiga yordam beradigan sohani tanlash kapital ko'payishiga strategik yo'l bilan erishish imkonini beradi [2].

Chi-Chuan Lee, Chien-Chiang Lee, Yan-Yu Chiou tomonidan hamkorlikda tayorlangan maqolada sug'urta kompaniyalari tomonidan tuziladigan sug'urta shartnomalari orqali kelib tushadigan mablag'larning davriyligi va hajmi va ulardan foydalanish davomiyligi, ushbu faoliyatga globallashuvning ta'siri to'g'risida shunday fikrlar berilgan: Tushumning muddatlari va summalari o'rtasidagi hamda sug'urta to'lovlari o'rtasidagi farq sug'urta kompaniyasi mablag'larini realizatsiya qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, kapital bozori globallashuvining kuchayishi bilan sug'urta fondlarining o'zni sug'urta kompaniyasining asosiy faoliyatiga nisbatan kuchaydi[3]. Li Juan investitsion faoliyat barqarorligini ta'minlashda aksiyadorlarning qo'llab-quvvatlashi to'g'risida shunday deydi: Sug'urta kompaniyasi sug'urta operatsiyalari natijasida jiddiy falokatga duch kelgan yoki jiddiy yo'qotishlar yuzaga kelgan hollarda aksiyadorlar sug'urta kompaniyasining asosiy vazifasi bajarilishini ta'minlash uchun o'z kapitali bilan sug'urta kompaniyasining faoliyati uchun javobgarlikni zimmlariga oladilar[4]. Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati bo'yicha tadqiqot olib borgan O'zbekistonlik tadqiqotchi I.G'. Kenjayev Li Juan tomonidan berilgan yuqoridagi fikrga nisbatan shunday fikr bildiradi: Bunday xarajatlar sug'urta kompaniyasining boshqa kapitalari hisobidan qoplanishi mumkin emas, chunki muammoni bunday hal etish kompaniyaning bundan keyingi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi

mumkin. Biroq, sug'urta kompaniyasi barqaror ishlagan holatda va ustav kapitalining hajmi kamaymagan holatda, uning bir qismini investitsiya qilishga ruxsat beriladi. Iqtisodiyotga zarur darajadagi investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faolligini oshirishga va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga olib keladi[5].

Tadqiqotning maqsadi va usullari (Методология и исследования/Research Methodology).

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jara'fida empirik, statistik va taqqoslama tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati bir tomondan iqtisodiyot uchun asosiy investitsiya manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan, sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Dunyodagi sug'urta sohasi yuqori darajada taraqqiy topgan davlatlarda sug'urta sohasi yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, uning yetakchiligi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- bu kabi mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida uchrab turadigan turli tabiiy va texnologik hodisalar yuz berishi natijasida kelib chiqadigan zararlarni qoplab berish va ularning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi;

- mamlakat iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilayotgan, mamlakat tashqarisidan jalb qilinayotgan va ichki investitsiyalarni turli ko'rinishdagi risklardan himoya qilish bilan investitsiya bozorining barqaror tarzda kengayishiga imkoniyat yaratish.

Mamlakatimizda ham sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyati tobora kengayib borayotganligini quyida keltirilgan jadvaldagi statistik ma'lumotlar tasdiqlab turibdi (jadval).

Jadvalni tahlil qilganimizda ma'lum bo'ldiki, mamlakatimiz sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiya mablag'lari doimiy o'sish tendentsiyasiga ega – besh yil ichidagi o'sish 1,9 barobarni tashkil etib, tahlil qilinayotgan o'nggi besh yil davomidagi o'rtacha yillik o'sish 18,6 foizni tashkil etgan. Investitsiyalar tarkibiga e'tibor qaratganimizda, bank depozitlariga yo'naltirilgan investitsiyalar katta hajmni tashkil etib, 2024 yilda jami investitsiyalarning 70,0 foizini tashkil etgan bo'lib, ushbu nisbat yillar davomida o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Buning asosiy sababi banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik nisbatan yuqori darajada ekanligida bo'lib, tuzilayotgan sug'urta shartnomalarining katta qismi bank operatsiyalari risklari bilan bog'liq sug'urta shartnomalari hisoblanadi. Ushbu hamkorlik borasida shuni ta'kidlab o'tish kerak, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikning imkoniyatlarini hal qilishda foydalanilmayapti. Mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solingan holatda uning natijasida tuziladigan sug'urta shartnomalari soni bir necha baravar ortish ehtimoli mavjud. Bunday hamkorlik sifatida banksug'urta konsepsiyasini amalga oshirish banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni yuqori darajaga ko'tarilishiga imkoniyat yaratib bergan bo'lar edi.

Sug'urta kompaniyalari tomonidan tijorat banklariga yo'naltirilgan mablag'lar ikki tomon uchun qay darajada manfaatli? Tijorat banklari ushbu mablag'lardan kredit mablag'i sifatida foydalanmoqda, ya'ni mazkur mablag'lar yuqori foiz bilan iqtisodiyot sohalariga investitsiya sifatida yo'naltirilmoqda, chunki mablag'lar bir vaqtning o'zida ikki tomon uchun daromad keltirishi kerak. Bu esa tadbirkorlar uchun o'z biznes rejaralarini samarali amalga oshirishlarini qiyinlashtirmoqda. Sug'urta kompaniyalari ham banklarga yo'naltirilgan bu mablag'lardan nisbatan past daromad oladi. Agar bu mablag'lar sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilganda sug'urta kompaniyasi uchun ham, tadbirkorlik sub'ekti uchun ham qulay imkoniyatlarini yaratgan bo'lar edi.

Olingan besh yilda ikkinchi o'rindagi yuqori o'sish hajm jihatidan kichik bo'lsada, zaymlar taqdim etish yo'nalishida yuz bergan va bu 2,3 barobarni tashkil etgan bo'lib, ushbu zaymlarning asosiy qismi sug'urta kompaniyalarining o'z xodimlari va polis egalari uchun yo'naltirilgan mablag'lardan tashkil topgan. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar 2024 yilda jami investitsiyalarning 19,9 foizini tashkil etgan. Ko'chmas mulk ob'ektlari sotib olish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 2024 yilda jami investitsiyalarning 6,9 foizini tashkil etgan. Tashkilotlar ustav fondida ishtirok etish uchun yo'naltirilgan mablag'lar 2024 yilda jami investitsiyalarning 1,5 foizini tashkil etgan bo'lib, ushbu mablag'lar sug'urta kompaniyalarining sho'ba korxonalarini sifatida tashkil etilgan

hayot sug'urtasiga ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mablag'lardir.

Investitsiya sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar jami bo'yicha sezilarli o'sish davom etgan bo'lsada, xilma-xillik nisbatan past darajada va shu bilan birga 2024 yilda tijorat banklariga yo'naltirilgan depozitlar va berilgan zaymlardan tashqari barcha yo'nalishlarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmida kamayish yuz berganligini ko'rish mumkin. Ko'rinib turibdiki, investitsiya faoliyatining diversifikatsiyasi to'liq ta'minlanmagan va banklarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ulushining ortib borishi davom etmoqda.

1-jadval
“O'zbekiston sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar dinamikasi”¹

Investitsiyalar yo'naltirilgan sohalar	2020	2021	2022	2023	2024	2020 yilga nisbatan 2024 yilda o'sish
Jami investitsiyalar	3354,6	3746,7	4 751,8	6 149,9	6 542,6	1,9 barobar
Bank depozitlari	1784,6	2208,6	2896,6	4 037,4	4 583,8	2,6 barobar
Qimmatli qog'ozlar	957,7	1096,0	1287,9	1 357,5	1 303,8	1,4 barobar
Zaymlar	41,6	47,5	60,8	46,9	95,4	2,3 barobar
Ko'chmas mulk sotib olish	307,5	247,3	358,9	539,5	452,7	1,5 barobar
Ustav fondida ishtirok etish	257,5	142,2	118,2	134,7	98,5	0,4 barobar
Boshqalar	5,7	5,1	29,3	34,0	8,4	1,5 barobar

Sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri yo'naltiradigan yuqori daromadli va ishonchli investitsiya instrumentlari yetarli emasligi investitsiya mablag'larining samaradorligini pasaytirmoqda. Ushbu holatni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida quyidagilar ko'zda tutilgan edi: “Quyidagilar O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilansin: sug'urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to'lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish”[6]. Mazkur qaror asosida tasdiqlangan yo'l xaritasida: Sug'urta (qayta sug'urta) tashkilotlarining investitsiya instrumentlari ro'yxatini kengaytirish va ularning, shu jumladan ipoteka, lizing va mikromoliyalash, qimmatli qog'ozlar va boshqa bozorlardagi investitsiya faoliyatini rivojlantirish masalalari ko'zda tutilgan va ushbu vazifani idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish asosida amalga oshirish belgilanib, uning muddati sifatida 2019 yilning oktyabr oyi belgilangan edi. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2021 yil 13 dekabrda 76-sonli buyrug'ini qabul qilinib, unga ko'ra, sug'urta kompaniyalari o'z investitsiya mablag'larini qonunchilik hujjatlariga muvofiq chiqarilgan orporativ obligatsiyalarga yo'naltirish mumkinligi belgilangan. Ammo bugungi kunga qadar mamlakatimizda korporativ obligatsiyalar bozori talab darajasida shakllanmaganligi tufayli sug'urta kompaniyalari ushbu sohaga o'z mablag'larini amalda yo'naltirmayapti.

Iqtisodiyotga zarur hajmdagi ichki va tashqi investitsiya mablag'larini jalb qilishning muhim sharti mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratishdir. Qulay investitsiya muhitini yaratishning muhim shartlaridan biri, yo'naltiriladigan investitsiya mablag'larining samaradorligini ta'minlashdan iborat. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi holati va davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarib borishi iqtisodiy fanning dolzarb muammolarini, jumladan investitsiya bilan bog'liq masalalarni muntazam qayta ko'rib chiqish va ilmiy o'rganishni talab etadi.

Investitsion faoliyat samaradorligini oshirishning maqsadi moliyaviy risk darajasini nazorat qilish barobarida optimal investitsion daromad olishdir. Ushbu maqsadga samarali investitsiya siyosatini amalga oshirishdan erishib bo'lmaydi. Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.V.Vaxabovning fikriga ko'ra, “investitsiya siyosati investitsion faoliyatning o'rta va uzoq muddatli maqsadlari hamda ularga erishish

yo'llarini belgilab beradi. Investitsiya siyosati investitsiya strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi, investitsion taktikadir"[7].

Sug'urtalovchi investitsion imkoniyatining hajmi va vaqt parametrlari uning investitsion faoliyati xarakterini belgilab beradi, investitsion faoliyatning o'zi esa asosiy faoliyat yo'nalishiga bog'liq. Shuning uchun sug'urta faoliyati investitsiya faoliyatining o'ziga xos tomonlarini ta'riflaydi.

Investitsion aktivlarning likvidlilik darajasi juda yuqori bo'lmasligi kerakligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki bularning barchasi investitsion faoliyatning daromadlilik pasayishiga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, sug'urtalovchi investitsion resurslar transformatsiyasini operativ boshqarish jarayonida ortiqcha likvidlilik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Ortiqcha likvidlilikning paydo bo'lishi sug'urta zahiralarning vaqtincha ortiqcha mablag'larini samarasiz joylashtirilganligidan dalolat beradi.

Sug'urta sohasining investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi maxsus me'yoriy hujjatlar sifatida 2008-yil 22-aprelda amalga kiritilgan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida" nizom[8], 2009-yil 3-iyulda amalga kiritilgan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida nizom"[9] va 2008-yil 20-noyabrda amalga kiritilgan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida nizom"lar [10] amal qilmoqda.

"Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida" nizomda sug'urtalovchilar aktivlarini joylashtirishga oid talablar belgilangan bo'lib, bunday talablar sifatida sug'urtalovchining boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalariga joylashtiriladigan aktivlariga nisbatan chegaralar, sug'urtalovchining har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalidagi ulushiga nisbatan chegara, sug'urtalovchi aktivlarini ko'chmas mulk ob'ektlariga joylashtirish bo'yicha chegara, kredit tashkilotlariga joylashtiriladigan mablag'lar bo'yicha chegaralar belgilangan bo'lib, bundan tashqari, sug'urtalovchi aktivlarini yo'naltirish ta'qiqlangan sohalar ham belgilangan.

Ushbu nizomda qarz berish masalasi ham ko'zda tutilgan bo'lib, unga ko'ra sug'urtalovchi o'z ta'sisчилari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek, u bilan hayot sug'urta shartnomasini tuzgan sug'urtalanuvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarz berishga haqli ekanliklari belgilab qo'yilgan. Ushbu nizom asosida sug'urtalovchining mablag'larini joylashtirish faoliyatiga yetarli darajada ko'p chegaralar va cheklovlar belgilangan bo'lib, bundan maqsad, joylashtirilayotgan mablag'larning diversifikatsiyasini, qaytishligini, foydaliligini hamda likvidligini ta'minlashdan iborat.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlariga e'tibor qaratganimizda, ularda belgilangan qoidalar va talablar asosan, sug'urta kompaniyalari tomonidan investitsion faoliyatni amalga oshirishda ushbu faoliyatni faqat son jihatidan tartibga solishga e'tibor qaratilgan, mablag'larning diversifikatsiyasini ta'minlashga, risk darajasini mumkin qadar kamaytirishga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin, ya'ni ushbu hujjatlarda investitsion faoliyatga bir tomonlama yondashuvni ko'rish mumkin. Bizning nazarimizda masalaning ikkinchi tomoni – investitsion faoliyatning sifati va samaradorligi masalasiga e'tibor qaratilmagan.

Shuni qayd etish lozimki, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi orqali rivojlanish sur'atlariga baho beriladi. "Xalqaro tajribaga ko'ra asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami hajmi YaIMning 25 foizi va undan kam bo'lmaganda iqtisodiy o'sish namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar o'sha yilning o'zida ijobiy o'zgarish qilmasa-da ma'lum bir yillar o'tgandan so'ng [laglarni inobatga olgan holda] YaIMning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi"[11].

Rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan, investitsiyaga yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligini belgilovchi ICOR ko'rsatkichini umuman iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalarga nisbatan va xususan, sug'urta kompaniyalari tomonidan iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirilgan investitsiyalarga nisbatan qo'llash va shu asosda sohani tahlil qilib borish zarur. Shu asosda investitsion faoliyatning sifat va samaradorlik ko'rsatkichlariga e'tiborni qaratish zarur, ya'ni investitsiya uchun yo'naltirilgan 2,5-3 so'mdan kamida 1 so'm daromad olishga erishish kerak. Buning uchun investitsion mablag'larning samaradorligi ko'rsatkichiga e'tiborni qaratish zarur. Albatta bunda risk darajasini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak, demak, risk va samaradorlik o'rtasidagi optimal nisbatni topishga shart-sharoit yaratilishi kerak deb hisoblaymiz.

Ma'lumki biror bir hududda yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (yalpi ichki yoki yalpi hududiy mahsulot o'sishining kapital sig'imi). U quyidagicha aniqlanadi:

$$ICOR = I : YHM \times 100\% : \Delta YHM\%$$

Bu yerda:

I – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar;

YHM – YaHM hajmi;

$\Delta YHM\%$ – YaHM miqdorining o'sish sur'ati, foizda.

ICOR indeksi qanchalik past bo'lsa, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda investitsiyalarning ahamiyati yuqoriligini, o'zlashtirilgan har bir birlik investitsiya o'zidan oldingi darajadan yuqori bo'lgan miqdorda mahsulot yaratish imkonini beradi. Bu esa mavjud holatda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishni yanada kuchaytirish kerakligini taqozo etadi. ICOR indeksi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi past bo'ladi. Bu esa, investitsiyalarning ahamiyati pastligidan guvohlik beradi, o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan iqtisodiy o'sish o'zaro muvofiqlashmaganligidan darak beradi.

Jahon amaliyotida va xususan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning ijobiy sur'atini ta'minlash uchun ICOR ko'rsatkichining nisbati 2,5:1 dan 3:1 oralig'ida baholanadi. Ya'ni, iqtisodiyotga kiritilgan 2,5 yoki 3 so'mlik investitsiya yalpi ichki mahsulotning 1 so'mlik o'sishini ta'minlashi ijobiy holat hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatimizda investitsiya faoliyatida o'z o'rniga ega bo'lgan sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish mazkur ko'rsatkichning Jahon banki me'yorlariga tenglashishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday darajaga erishishda sug'urta kompaniyasi investitsion mablag'lari tarkibi ham muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, sug'urta kompaniyasining investitsiyaga yo'naltiriladigan mablag'lari o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi. Sug'urta kompaniyasining o'z mablag'lari asosan uning ustav kapitali va taqsimlanmagan foydasidan tashkil topadi. Jalb qilingan mablag'lar esa sug'urta faoliyatini amalga oshirish davomida sug'urta shartnomalari asosida to'plangan sug'urta mukofotlaridan tashkil topadi. Jalb qilingan mablag'larning hajmi uning sug'urta faoliyatini qay darajada yo'lga qo'ya olganligiga bog'liq bo'lib, mablag'lar tarkibi esa kompaniyaning qaysi sug'urta tarmog'ida faoliyat olib borishi va sug'urta portfeli tarkibiga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerak, sug'urta kompaniyasi investitsion faoliyatni keng va samarali tarzda yo'lga qo'yish imkoniyati o'z mablag'lari hajmiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki, kompaniyaning o'z mablag'lari turli majburiyatlardan xoli, nisbatan erkin mablag'lar bo'lib, bunday mablag'larni xoxlagan muddatga va ruxsat etilgan xoxlagan sohalariga yo'naltirish mumkin va bu investitsion faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Jalb qilingan mablag'lar esa ko'p hollarda qisqa muddatli bo'ladi va shu bilan birga ularni likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan sohalariga yo'naltirish talab etiladi. Likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning daromadlilik nisbatan past bo'lishi tabiiy. Shuning uchun, investitsion faoliyat samaradorligini oshirmoqchi bo'lgan sug'urta kompaniyasi o'z mablag'lari hajmini kengaytirishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

O'zbekiston iqtisodiyotida transformasiya jarayonlari ketayotgan hozirgi sharoitda investitsiyalar muhimlik kasb etadi, bunda tashqi investitsiyalarni jalb qilish bilan birga, mamlakatda ichki investitsiya imkoniyatlari oshib borayotganligi hamda ichki investitsiyalarning afzalliklari yuqori ekanligini e'tiborga olgan holda, ushbu imkoniyatdan to'liqroq foydalanish va bunda sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishga, buning uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga davlat tomonidan e'tibor qaratilishi zarur.

Sug'urta kompaniyasi investitsion faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishi, mikrodarajada uning moliyaviy barqarorligini, to'lovga qobilligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. "Shu bilan birga, sug'urtaning yana bir muhim xususiyati – iqtisodiyotni uzoq muddatli investitsiya mablag'lari bilan ta'minlovchi manba sifatida amal qilishi davlatning ushbu sohani rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini yanada orttiradi.makrodarajada mamlakat iqtisodiyotini katta hajmdagi uzun va o'rta muddatli investitsiya mablag'lari bilan ta'minlaydi"[12].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatining istiqbolli faqatgina ularning investitsion imkoniyatlari bilan

bog'liq emas, balki mavjud moliya bozorining rivojlanganli darajasi bilan ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References/Литературы)

1. 2019 йил – «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили. 2019 йилда мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг мухим устувор вазибалари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Парламентга Мурожаатномаси. <http://semc.uz>
2. Liu Ping. Principles and Application of Insurance (Second Edition). Beijing: Tsinghua University Press, – 2013. – P.226 .
3. Chi-Chuan Lee, Chien-Chiang Lee, Yan-Yu Chiou. Insurance activities, globalization, and economic growth: New methods, new evidence // J. Int. Financ. MarketsInst. Money. – 2017. – Vol.51. – P. 155–170.
4. Li Juan. Research on the Utilization and Supervision of Insurance Funds in my country: Based on the analysis of the case of the equity dispute between Qianhai Life Insurance and Vanke. Changsha: Hunan Normal University, 2019, – 65p.
5. Кенжаев И.Ф. Суғурта ташкилотларининг молиявий ресурсларини жойлаштириш самарадорлигини ошириш йўллари. И.ф.ф.д. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: ТМИ 2019 й. 21 бет.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислох қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz>
7. Вахабов А.В. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. –Т.: Baktria press. 2015 (Sh.X. Xajibakiyev, D. Tojiboyeva bilan hammualliflikda).
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008-yil 22-aprelda qabul qilingan buyrug'i bilan amalga kiritilgan “Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida” nizom
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009-yil 3- iyulda qabul qilingan buyrug'i bilan amalga kiritilgan “Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risida nizom”.
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2008-yil 20-noyabrda qabul qilingan buyrug'i bilan amalga kiritilgan “Sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralari to'g'risida nizom”.
11. Ражабов Н.Р. Инвестицион муҳит жозибadorлигини баҳолашнинг илмий-услубий жиҳатлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий-электрон журнали, №4, июль-август 2020 й.
12. Қўлдошев, Қ. (2023). SUG'URTA FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA BU BORADAGI CHET EL TAJRIBALARINI QO'LLASH MASALALARI . Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 12–15. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/26>